ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

pragmatik va lingvokulturologik vositalar orqali qanday yaratilishi hamda uning obraz yaratish, estetik ta'sirni kuchaytirish va ijtimoiy mazmunni ifodalashdagi badiiy funksiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Resume. This article provides a scholarly analysis of the linguistic mechanisms of humor in Gafur Gulam's «Shum bola», focusing on its lexical-semantic, stylistic, pragmatic, and linguocultural features, as well as examining the artistic functions of humor in character construction, enhancing aesthetic effect, and expressing the social meaning of the text.

Резюме. В данной статье научно анализируются лингвистические механизмы создания юмора в произведении Гафура Гуляма «Шум бола», включая его лексико-семантические, стилистические, прагматические и лингвокультурологические особенности, а также рассматриваются художественные функции юмора в формировании образов, усилении эстетического воздействия и выражении социального содержания текста.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FARG'ONA VODIYSI SHEVALARINING O'RGANILISHI

Raxmonova Dilzodaxon,
Farg'ona davlat universiteti magistrant talabasi

Farg'ona vodiysi o'zbek xalqi va uning tili shakllanishida eng muhim markazlardan biri hisoblanadi. Ashurali Zohiriy adabiy til uchun tayanch dialekt haqida gapirar ekan, Farg'ona shevasini taklif qiladi, hozir qo'llanilayotgan yozma til aynan Farg'ona shevasi ekanini aytadi: «Adabiyotimizning asosi jonli til (xalq adabiyoti) bo'lishi lozim, dedik. Shundoq bo'lg'ach, men Farg'ona (vodiysi) shevasini taqdim etsam, xato qilmag'an bo'lurmen. Bunda «qo'ng'uz oppog'im», «kirpi yumshag'im der» degandak bo'ldi, deb mendan kulmasdan, balki so'zimni quvvatlaydurg'anlar ko'brak bo'lur. Chunki bu kungi o'zbak adabiyotining 17 (basma so'zining) tili (undag'i ba'zi bir mahalliychilikni e'tibarg'a almag'animizda) Farg'ana shevasining o'zidur. Shevaning o'zi basma so'zni va uning tevaragidagi amillarni tabiiy ravishda o'ziga tartqan. Endi biz uning ichiga bashvaqsizliq yaki mahalliychilik ta'siri astida kirib qalg'an va qaladurg'an so'zlar to'g'risida bir fikrga kelib alsaq, ham yana tag'in saddalashtirish, xalqqa yaqinlatish, ishchi, dehqan ammasi ichidan aling'an so'zlar bilan bayitish charasini ko'rsak bo'ldi»[1]. Mazkur hududda o'zbek tili shevalarining xilma-xilligi va ularning o'ziga xos dialektal xususiyatlari bevosita vodiydagi uzoq davom etgan murakkab etnik jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu hududdagi turkiy xalqlar turli urug' va qabila vakillaridan bo'lgan. Bu haqida professor A.Y.Yakubivskiy shunday deydi: «VIII asr boshlarida bu yerda (Farg'onada) turk aholisining hukmron bo'lganligi haqida shubhalanib bo'lmaydi. Qoraxoniylar qo'shini sostavida, yettisuvdagi hamma turk qabila va xalqlari, ya'ni arg'u , tuxsi, qorliq, chigil, yag'ma va boshqa xalqlar bo'lgan bo'lsa kerak. Biroq, XI-XIII asrlardagi yozma manbalarga qaraganda, Qoraxoniy xonlari zamonida O'zbekiston tuprog'ida qorliqlar bilan birga chigillar bosh rolni o'ynaganlar. Ammo turk elementlarining O'zbekiston tuprog'iga qarashlari shu nomlari ko'rsatilgan qabilalar bilan cheklanmaydi. Sirdaryo tomonlaridan belgili miqdorda o'g'uzlar, ular orasidan qipchoqlar siljib keladilar[2].

Ma'lumki, turklashish dastlab turk tili va nutqining g'alaba qozonishida ifodalanadi. «Turk tilida so'zlashuvchi xalqlar, ayniqsa, Farg'ona va Shoshda juda tez shakllandiki, XIII asrning 20-yillarida

[1] Ашурали Зоҳирий. Тил, атама ва имло баҳслари // Қизил Ўзбекистон. – Тошкент, 1929, 30-31-март.
[2] Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Тошкент, 1941. – Б. 10.

mo‘g‘ullar O‘zbekiston aholisi sostaviga hokim element sifatida kirgan vaqtlarda hamma yerda turk tili va nutqiga duch kelganlar. Umuman mo‘g‘ullar zamonida Farg‘onadagi talay shaharlar turk shahariga aylandi… Shosh va ayniqsa, Sirdaryoning quyi oqimidagi viloyatlarda joylashgan ba’zi bir shaharlarning ham aholisi turklar edi»[1].

Z.M.Bobur Farg‘ona aholisining XV asr oxiridagi etnik sostavi haqida ma’lumotlar berar ekan, bu vodiyning aholisi turklar va sartlardan iborat degan fikrni aytadi[2].

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi turklar-o‘zbeklarning O‘zbekistonni bosib olishlari natijasida Farg‘ona vodiysidagi bu ikki etnik guruhga uchinchi etnik guruh - qipchoqlar kelib qo‘shildi.

Undan keyingi davrlarda esa Farg‘ona vodiysining aholisi qirg‘iz, qipchoq, tojik va uyg‘ur ko‘chmanchilarining hisobiga ortib bordi. Bu esa Qo‘qon xonligi aholisining etnik jihatdan turlicha bo‘linishiga olib keldi. Lekin shunga qaramasdan, Farg‘ona vodiysining markaziy qismida o‘zbeklar o‘rnashib oldi.

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona vodiysining etnik manzarasi ko‘p qatlamli bo‘lib, bu bevosita zamonaviy o‘zbek tili shevalarining uchta yirik lahjasi (qarluq, qipchoq va o‘g‘uz) ushbu hududda o‘zaro integratsiyalashuviga olib kelgan. Yakubovskiy ta’kidlaganidek, qoraxoniylar davrida chigil va qarluqlarning hukmronligi Farg‘onada bugungi o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan «o»lovchi (shahar) shevalarining barqarorlashishiga zamin yaratgan. XII asrga kelib kelib turk nutqining to‘liq g‘alabasi shaharlardagi o‘troq aholi nutqida qarluq lahjasining dominant bo‘lishini ta’minladi.

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan manba va tahlillarga tayangan holda Farg‘ona viloyati shevalari yetarlicha va mukammal o‘rganilmaganligini, materiallar kamligini aytib o‘tishimiz mumkin. Xususan, 1957-yilda Professor Sh.Shoabdurahmonov tomonidan Qo‘qon shevasining ba’zi bir fonetik xususiyatlariga doir chiqargan maqolasini dastlabki ishlardan deb ko‘ra olamiz. O‘zbek tili shevalarining, ayniqsa, markaziy shahar shevalarining o‘zlariga xos xususiyatlarini atroflicha ilmiy asosda o‘rganish hozirgi kunda nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Bunday ilmiy tekshirish ishlari o‘zbek adabiy tiliga tayanch bo‘lgan shevalarni va ular orasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab turish uchun ham, shuningdek, o‘zbek milliy tiliga asos bo‘lgan shevalarni tayinlab berish uchun ham muhimdir. Bilamizki, Qo‘qon shevalari boshqa shevalardan, shuningdek, Farg‘ona tip shevalaridan ham o‘zining ba’zi bir dialektal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu sheva leksik, morfologik va shu bilan birga fonetik o‘ziga xosliklarga ham egadir.[3]

Ushbu maqolada tilshunos olim Qo‘qon shevasining unlilar va undoshlar tarkibi, tasnifi va xususiyatlari hamda ular bilan bog‘liq ayrim fonetik hodisalarni berib o‘tgan.

Qo‘qon shevasi haqida gap ketar ekan, Sh.Nosirovning «O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi» nomli monografiyasi ham bu sheva fonetikasi va morfologiyasiga oid qimmatli ma’lumotlarni beradi. Ushbu monografiyada Qo‘qon shevasining fonetik va morfologik xususiyatlari Qo‘qon grupa shevalari va boshqa o‘zbek shevalari bilan qiyosiy tarzda yoritib berishga harakat qilingan. Sheva materiallari o‘rni bilan qadimgi yozuv yodgorliklari hamda qardosh turkiy tillar bilan ham qiyos qilingan.

Olim ko‘plab tilshunoslarning unli va undoshlar tasnifidagi masalalariga to‘xtalar ekan, o‘z tekshirishlari davomida Qo‘qon zonasida olti xil unli fonema mavjudligini keltirib o‘tadi va ularning xususiyatlarini ochib beradi. Bular quyidagilar:

ъ у
е о
ə[a] ɔ

Undosh fonemalar haqida esa quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi:

Qo‘qon shevasi undosh fonemalarning soni va sifati jihatidan boshqa y-lovchi shevalar kabi o‘zbek adabiy tiliga yaqin tursa-da, o‘ziga xos ayrim farqlarga ham ega. Ma’lumki, o‘zbek adabiy tilida 25ta undosh fonema bor. Qo‘qon shewvasida esa undosh fonemalar miqdori 22 tadir.

Shevada ф, ц, ж undoshlari qo‘llanmaydi, chunki barcha hollarda ф>н, ц>с ва ж > д ж ga o‘tadi.

Shevada Toshkent shevasidan farqli o‘laroq, chuqur til orqa х va bo‘g‘iz h undoshlari mustaqil fonema sifatida ishlatiladi.

Qo‘qon shevasidagi undosh fonemalar quyidagilar:

1. Lab undoshlari: б, в, п, м.
2. Til oldi undoshlari: т, д, г, д ж (ж), з, с, ш, и, л (л‘), р.
3. Til o‘rta undoshi: й.
4. Sayoz til orqa undoshlari: к, г, нг (нг’)
5. Chuqur til orqa undoshlari: қ, ғ, х
6. Bo‘g‘iz undoshi:ҳ(х)[4]

Monografiyada assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza va ayniqsa, o‘zbek shevalarining aksariyatida yo‘qolib borayotgan singarmonizm (unlilar mo-

[1] Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Тошкент, 1941. – Б. 12.
[2] Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома. – Тощкент, 1960, 81-161-бетлар.
[3] Шоабдураҳмонов Ш. Қўқон шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари ҳақида. ЎЗДМ, I. – Тошкент, 1957.
[4] Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеваси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 35-36.

slashuvi) hodisalarining yoritilishi shevaning o‘ziga xos „ichki tartibi“ borligini ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar o‘zbek tili fonetikasi va fonologiyasi bo‘yicha nazariy qarashlarni boyitadi.

Muallifning sheva materiallarini shunchaki qayd etib qolmasdan, ularni qadimgi yozuv yodgorliklari va boshqa turkiy tillar bilan qiyoslashi tadqiqotning ilmiy vaznini oshirgan. Bu yondashuv Qo‘qon shevasi nafaqat hududiy dialekt, balki turkiy tillar tarixini o‘rganishda jonli manba ekanligini isbotlaydi.

Asarda fonetika bilan birga morfologik sathning ham qamrab olinishi Qo‘qon shevasining to‘liq grammatik modelini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa dialektologiya sohasida hududiy nutqning lug‘at boyligi va grammatik qurilishini o‘rganishda metodologik namuna bo‘lib xizmat qiladi.

S.Ibrohimovning «Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi» mavzusidagi tadqiqoti o‘zbek dialektologiyasi va etnolingvistikasining nodir namunalaridan biridir. Ushbu ish nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya va xalq tarixi nuqtai nazaridan ham ulkan ilmiy qiymatga ega.

S.Ibrohimov tadqiqotida Farg‘ona vodiysi aholisining an’anaviy turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan uchta yirik soha leksikasini alohida ajratib ko‘rsatadi: tandirchilik atamalari, kulolchilik leksikasi hamda shuvoqchilik atamalari. Ushbu ish shunchaki so‘zlar ro‘yxati (lug‘at) emas, balki etnolingvistik tadqiqotdir. Chunki atamalar orqali hududiy hunarmandchilikning o‘ziga xos maktablari (masalan, Rishton kulolc hiligi) ochib beriladi; o‘zlarning kelib chiqishi (etimologiyasi) hamda ularning qadimgi turkiy tildagi ildizlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi; ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasida iste’moldan chiqib borayotgan arxaik atamalarni saqlab qolishga xizmat qiladi[1].

Rezyume. Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi shevalarining o‘zbek adabiy tili shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda hududning etnik manzarasi, xususan, qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining integratsiyalashuvi hamda bu jarayonning jonli nutqqa ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ashurali Zohiriy, A.Y.Yakubovskiy va Sh.Nosirov kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda, Qo‘qon shevasining fonetik, morfologik va leksik o‘ziga xosliklari, xususan, undoshlar tizimidagi farqlar va kasb-hunar leksikasi yoritib berilgan.

Resume. This article analyzes the role and significance of the Fergana Valley dialects in the formation of the Uzbek literary language. The study examines the ethnic landscape of the region, specifically the integration of Qarluq, Kipchak, and Oghuz dialects, and the impact of this process on spoken language. Based on the scientific perspectives of scholars such as Ashurali Zohiriy, A.Y.Yakubovskiy, and Sh.Nosirov, the phonetic, morphological, and lexical peculiarities of the Kokand dialect are highlighted, including differences in the consonant system and professional vocabulary.

Резюме. В данной статье анализируется роль и значение диалектов Ферганской долины в формировании узбекского литературного языка. В исследовании рассматривается этническая панорама региона, в частности интеграция карлукского, кипчакского и огузского диалектов, а также влияние этого процесса на живую речь. На основе научных взглядов таких ученых, как Ашурали Захири, А.Ю.Якубовский и Ш.Носиров, освещаются фонетические, морфологические и лексические особенности Кокандского диалекта, в частности различия в системе согласных и профессиональная лексика.

1 С. Иброҳимов. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. Тошкент, 1956.